



MARKAZIY OSIYODA SUV MUAMMOLARI: O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON O'RTASIDAGI SUV RESURSLARI UCHUN RAQOBAT

Xumora Eshpulatova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya univertiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti magistranti,

e-mail: khumoraeshpulatova@gmail.com

Tel: +998 97 575 77 52

Annotatsiya Ushbu maqolada O'zbekistoni Markaziy Osiyo mintaqasidagi chegaradosh davlatlar ya'ni qo'shni Tojikiston bilan suvdan foydalanishda yuzaga kelayotgan o'zaro raqobati hamda ushbu raqobatni keltirib chiqarayotgan sabablarini tahlil qiladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida suv resurslarining taqsimlanishi mintaqaviy siyosatning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu mintaqada mavjud suv muammolari ekologik muvozanatni buzadi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi va siyosiy tangliklarni kuchaytiradi. Amudaryo va Sirdaryo daryolari transchegaraviy suv manbalari bo'lib, ularning umumiy yillik oqimi 118-120 km³ ni tashkil etadi. Ushbu resurslar asosan Tojikiston (55,4%) va Qirg'iziston (25,3%) hududlarida shakllanadi, keyin esa O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'iston hududlarida foydalaniladi. Ushbu mamlakatlar suvdan foydalanishda ikki guruhga bo'linadi: yuqori oqim mamlakatlari (Tojikiston va Qirg'iziston) suvni elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun ishlatadi, past oqim mamlakatlari esa (O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston) suvni asosan qishloq xo'jaligida sug'orish uchun qo'llaydi. Ushbu resurslarning taqsimoti mintaqaviy hamkorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lsa-da, bu masala ko'pincha ziddiyat va mojaro sababiga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: *Suv diplomatiyasi, Suv xavfsizligi, O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish tizimi, transchegaraviy daryo, toza ichimlik suvi, suv manbalari, geografik joylashuv, xalqaro hamkorlik.*

Markaziy Osiyo davlatlarida suv va energetika manbalari nomutanosib joylashgan. Masalan, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston tabiiy gaz va neft

kabi uglebodorodlarning katta zaxirasiga ega, Qirg'iziston va Tojikistonga kelsak bu davlatlar Orol dengizi suv oqimining 68 foiz qismini nazorat qilish imkoniyatiga ega. Ushbu notekis taqsimlanish tufayli mintaqa davlatlari o'rtasidagi suv resurslaridan foydalanish bo'yicha jiddiy siyosiy muammolar ko'paymoqda.

Suv xo'jaligi bo'yicha ekspertlarning so'zlariga ko'ra keyingi 10 yililiklarda sayyoramizda suvga bo'lgan talab 3 barobar oshadi. Masalan BMT bergan axborotlarga ko'ra hozirdanoq O'rta Osiyo mamlakatlarida suv taqisligi boshlangan va suvni noto'g'ri sarflash tufayli har yili 2 milliard dollar atrofida iqtisodiy zarar ko'rmoqda. Mintaqaning asosiy suv mojoralaridan bir bu Tojikistonda Rog'un GES barpo etilishi bo'lib, bu GES ning qurilishiga O'zbekiston salbiy munosabatda bo'lmoqda. Chunki, bu to'g'on suvni ifloslanishiga sabab bo'lishi hamda qishloq xo'jaligiga zarar yetqazishi mumkin. Ushbu tahlilning maqsadi Rog'un GES qurilishini O'zbekistonga iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish va salbiy ta'sirini kamayturish choralarini ko'rib chiqish.

Ushbu loyiha qurilish davrida va foydalanish jarayonida inson omilli tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan xatarlarga ega. Shu sababli, bu GES qurilishini qo'shni davlatlar bilan hamkorlik kelishuvlari asosida barpo etish kerak. Agar Tojikiston va Qirg'iziston ushbu loyihani amalga oshirib elektr energiyasini sotib katta mablag'ga ega bo'lishni maqsad qilsa, qolgan davlatlar suv oqimining nazoratidan foydalanib ularga qarshi siyosiy to'siqlar qoyishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, suv tufayli paydo bo'layotgan kelishmovchiliklar mintaqa xavfsizligiga hamda siyosiy barqarorlika ziyon keltirish ehtimoli bor.

Bu GES ning qurilishi O'zbekistonni sug'orish mavsumida suvga nisbatan qaram qilib, iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir qiladi. Bu to'gonni qurish taklifi 1976- yilda Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi hukumronlik davrlarida boshlangan bo'lib, Tojikiston boshqa davlatlarga qaraganda iqtisodiy tomonlama zaif edi, shu sababli Tojikistonni energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash va iqtisodiyotini ko'tarish maqsad qilingandi. Lekin bu loyiha SSSR tarqalishi natijasida to'xtatilgandi. 2008-

yilga kelib esa Tojikiston Rog'un GES ni qurishni davom etirish niyati borligini elon qildi. Markaziy Osiyoning quyi oqimida joylashgan O'zbekiston va Qozog'iston kabi davlatlar GES ni ishga tushishiga norozilik bildirdi, chunki bu To'g'on sababli suv taqsimoti o'zgaradi. Shunisi ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining asosiy qismini qishloq xo'jaligiga egalaydi. Ayniqsa O'zbekiston Amudaryo bo'yicha 1,645 million gektar sug'oriladigan yerga ega va har yil ushbu yerlarni sug'orish uchun 23 km³ suv kerak bo'ladi.

ICG(2002) hisobotiga ko'ra, yangi To'g'on ishga tushsa, Tojikiston keladigan suv oqimini nazorat qilishi va suv taqsimotiga aralashish fakolatini beradi.

Shunday qilib, GES sababli Amudaryo oqimlari o'zgaradi va O'zbekiston qishloq xo'jaligiga ta'sir ko'rsatishni boshlaydi. Suv taqsimotini teng emasligi sababli mamlakatning yuqori va quyi oqimlaridan foydalanuvchilar o'rtasida tengsiz kelib chiqadi, ya'ni dehqochilikda suv tanqisligi paydo bo'ladi. O'zbekiston o'zgaruvchan oqim rejimlariga mos ravishda choralarni ko'rishi kerak hamda Fermerlar er osti zaxira suvlaridan foydalanib qayta ishlash infratuzilmalarini ko'rib chiqishiga to'g'ri keladi. Agar fermerlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sug'orishda yangi va samarali usularni ishlab chiqsa, davlat tomonidan rag'batlantirilishi kerak. Natijada fermerlar iloji boricha suvdan oqilona foydalanishga harakat qiladi.

Shu bilan birga O'zbekiston vaziyatni to'g'ri baholagan holda turli suv tanqisligi muammolariga tayyor bo'lishi va ushbu muammolarni keltirib chiqaradigan sabablarni chuqiroq o'rganishi kerak. Masalani boshqa tomoni ham o'ylash kerak, Tojikiston siyosiy tizimni o'zgarishi natijasida O'zbekiston qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli ikki davlat muammoni keskin tus olishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Tojikiston davlatlari o'zaro ishonch muhitini yaratish uchun suvdan oqilona foydalanish kelishuvlarini ishlab chiqishlari lozim. Shuningdek, har bir o'rnatiladigan tartib va qonun- qoidalar puxta ishlab

chiqilishi kerak. Markaziy Osiyoda suv resurslari bilan bog'liq muammolarni hal qilish mintaqadagi barcha davlatlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Suvdan oqilona foydalanish va adolatli taqsimotni tashkil etish uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish zaruratga aylanmoqda. Aks holda, bu muammolar ekologik va siyosiy xavflarni yanada kuchaytirishi mumkin. Suv diplomatiyasida muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish va xalqaro tajribalarni qo'llash mintaqadagi uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan yondashuv esa davlatlar o'rtasidagi suvdan foydalanishdagi ziddiyatlarni kamaytirib, barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sustainable water management and elimination of water scarcity: A case study in a remote district of Uzbekistan. J. Zuhridin, Ahn Young-Jin, 2023 [https://www.academia.edu/123859084/Sustainable Water Management and Elimination of Water Scarcity A Case Study in a Remote District of Uzbekistan](https://www.academia.edu/123859084/Sustainable_Water_Management_and_Elimination_of_Water_Scarcity_A_Case_Study_in_a_Remote_District_of_Uzbekistan)
2. Problems and Prospects of Water Management as a Blue Diplomacy for Green Economy Development in Central Asia. https://www.fiia.fi/wp-content/uploads/2023/04/report73_water-diplomacy-analysis-for-central-asia.pdf ;
3. Development of Cooperation in the Field of Water Diplomacy in Central Asia. https://www.fiia.fi/wp-content/uploads/2023/04/report73_water-diplomacy-analysis-for-central-asia.pdf
4. Agreement on Joint Development of Hydroelectric Power Stations in the Naryn-Syrdarya Basin. http://www.cawaterinfo.net/library/eng/l/syrdarya_water_energy.pdf
5. Memorandum of Understanding on Cooperation in the field of Energy in between the European Union and the Republic of Uzbekistan. https://energy.ec.europa.eu/system/files/2022/12/2011_01_24_uzbekistan_mou_0.pdf

6. The Central Asia Transmission Cooperation Association (CATCA), Concept and implementation roadmap. May 2022. https://energy.carecprogram.org/wp-content/uploads/2022/06/CATCA-Concept_final_EN_0622.pdf
7. Framework Agreement on Energy Cooperation within the Shanghai Cooperation Organization (SCO). <https://www.files.ethz.ch/isn/31817/Policypaper17.pdf>
Central Asia Energy-Water Development Program (CAEWDP) Action Plan.
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/979261502174391564/pdf/117997-Central-asia-energy-water-development-program-WP-PUBLIC.pdf>